


Raupov Soyib Saidovich

IJTIMOY SIYOSAT

(IZOHLI LUG'AT)

O'quv qo'llanma



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Raupov Soyib Saidovich

**IJTIMOY SIYOSAT
(IZOHLI LUG'AT)**

O'quv qo'llanma

Bilim sohasi: 560000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
ta'minot.

Ta'lim sohasi: 520000 – Ijtimoiy ta'minot.

Ta'lim yo'nalishi: 5520100 – Ijtimoiy ish (Faoliyatning
turli sohalari bo'yicha).

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2023

YŷK 338.23(038)
65.5ya2
R 26

Raupov, S. S. Ijtimoiy siyosat (izohli lug'at) [Matn] : / S. S. Raupov. – Buxoro :
Sadriiddin Salim Buxoriy, 2023. – 128 b.

KEK 65.5ya2

Muallif:

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, BuxDU
“Yurispridensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar” kafedrasi professori.

Mas’ul muharrir:

Muzaffarov F.D., falsafa fanlari doktori, BuxDU “Yurispridensiya
va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar:

To’raev X.H., Tarix fanlari doktori, BuxDU “Buxoro tarixi” kafedrasi
professori.

Bafoev F.M., Siyosiy fanlar nomzodi, Buxoro muxandislik –
texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti.

**O’quv qo’llanma Buxoro davlat universitetining 2023-yil 29-
noyabrdagi 673-sonli buyrug’iga asosan nashr etishga ruxsat
berilgan. Ro’yxatga olish raqami 673-27.**

ISBN 978-9910-04-022-1

KIRISH

O‘zbekiston xalqi hayotidagi muhim tarixiy voqealik – referendum orqali Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilindi. Mamlakat asosiy qonunining 1992 yildan buyon o‘zgar olmay kelayotgan 1-moddasi tahrirda ham o‘zgarishlar bo‘ldi. Unda “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanligi belgilab qo‘yildi. Xo‘sh, bu o‘zgarishlar amaldagisidan nimasi bilan farq qiladi?

Ushbu qo‘shimcha bilan O‘zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga yangi uchta, ya’ni «huquqiy davlat», «ijtimoiy davlat» va «dunyoviy davlat» tushunchalari qo‘shimcha qilindi.

Shu o‘rinda “Ijtimoiy davlat o‘zi nima?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. “Ijtimoiy” so‘zi “arabcha — jamoa, jamiyatga oid hamda inson va jamiyat hayotiga oid” degan lug‘aviy ma’nalarni anglatadi.

Ijtimoiy davlat — insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda, xususan, mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy ma’rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g‘oyasini «Fozil odamlar shahri» asarida tarannum etgan.

Ijtimoiy davlat barpo etish Alisher Navoiy bobomizning ham ezgu orzusi bo‘lgan. U insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma’rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o‘zaro mehr-oqibatli va bag‘oyat ahloqiy bo‘lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi. Shunga o‘xshash g‘oyalarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Ahmad Donish singari qator allomalarimiz ijodida ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda nemis olimi Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning ta’kidlashicha, davlat o‘z fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi, barcha ijtimoiy tabaqalar uchun o‘z hokimiyati orqali shaxsiy huquqlarda mutlaq tenglikni ta’minlashi lozim. Bunda inson kamoloti davlat ravnaqi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda keng tarqalgan talqinga binoan, ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat haqida, o'z fuqarolarining farovonligi, ijtimoiy himoyalanganligi xususida g'amxo'rlik qiladigan davlatdir. Bunday davlat o'z faoliyatini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari — ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlar, nogironligi bo'lgan insonlar, bolalar, keksalarni ijtimoiy himoyalash bilan uzviy olib boradi.

Bunda "ijtimoiylik"ning asosiy sharti — insonga uning qadri, sha'ni va erkini asrab-avaylab munosabatda bo'lishdir. Bu, o'z navbatida, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda, inson huquqlari va bu kafolatlanganligi bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy davlatning mohiyati uning oqilona ijtimoiy siyosatini amalga oshirishida, ayniqsa, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil ado etishida namoyon bo'ladi. Shu bois bunday davlat faoliyatining muhim qismini ijtimoiy vazifalarni bajarish tashkil etadi. Bularning hammasi ijtimoiy sohaga e'tibor kun sayin kuchayotganidan dalolatdir.

Ijtimoiy sohaga e'tiborning kuchayishi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning mohiyati va qonuniyatlarini atroflicha o'rganishni taqazo etadi. Ijtimoiy siyosatni o'rganishda, uning mohiyatini tushunib yetishda ushbu fandan tayyorlangan atama va tushunchalarning izohli lug'ati katta ahamiyatga ega.

Ushbu izohli lug'at "Ijtimoiy siyosat" fani bo'yicha mavzuga tegishli atama va tushunchalarning mazmuni, mohiyati, shakllari va usullarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, muallif uni yaratishda turli manbalar, o'zbek, va rus tillaridagi izohli, ensiklopedik lug'atlar, sohaga oid adabiyotlardan foydalandik. Tushunchalar mazmunini ochib berishda, tor soxaviy yondashishdan chetga chiqib, ularni atroflicha ta'riflashga urindik. O'rinlarda muqobil nuqqai nazarlarni keltirishga harakat qildik.

Lugatni tayyorlashda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar (bozor munosabatlariga o'tish, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun islohotlarni amalga oshirish, tub ijtimoiy o'zgarishlar, jamiyatning tabaqalanishi, keng aholi turmush darajasi pasayishining oldini olish, ishsizlik va qashshoqlashiga yo'l qo'ymaslik, aholining muhtoj qismini, nochor va ko'p bolali oilalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va b.) hisobga olindi.

A

Abdurauf Fitrat (1886—1938) Jadidchilik =arakatining yirik vakillaridan biri. Dastlab, u eski maktab, so'ng Buxoroning mashhur Mir Arab madrasasida tahsil olgan. Fitrat Turkiya, Hindiston, Markaziy Rossiya shaharlarida va Arabistonda bo'lgan. 1909—1913 yillarda Istanbulda o'qigan davrida „Yosh turklar inqilobi“dan qattiqta'sirlangan Fitrat siyosatga faol aralasha boshladi, bu hol uning ijodida ham o'z aksini topdi.

1913 yilda maorif va madaniy-ijtimoiy qurilish haqidagi yangi g'oyalar bilan ona shahri — Buxoroga qaytib kelgan bu yosh jadid qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biriga aylandi.

Fitratning o'sha davrdagi siyosiy qarashlari „Rahbari najot“ (1915), „Oila“ (1915), „Begjon“ (1916), „Mavludi sharif“ (1916), „Abo Muslim“ kabi asarlarida o'z aksini topdi. U jadid maktablari uchun „Muxtasar islom tarixi“ (1915), „O'qu“ (1917) kabi darsliklarini yaratdi.

Fitratning siyosiy qarashlarini o'rganish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'lmoqdaki, 19.17 yilgi Fevral, Oktyabr to'ntarishlari ham, 1920 yilgi Buxoro „inqilobi“ ham olingning milliy mustaqillik masalasidagi orzu umidlarini ro'yobga chiqarmagan. Birinchidan, bu inqiloblar Turkistonning mahalliy xalqiga o'z taqlirini o'zi hal qilish imkonini bermadi, ikkinchidan, hokimiyat xalqqa tegmadi. Hokimiyat chor mustamlakachilaridan sovet mustamlakachilari qo'lga o'tgan. Frunze madadi bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan Yosh buxoroliklar partiyasining rahbarlari noto'g'ri ish tutganliklarini keyinchalik tushunib yetganlar. Lekin xatolar anglanganda uni tuzatish deyarli imkonsiz edi.

Abu Ali ibn Sino (980—1037) qomusiy olim bo'lib, umumiy asarlari soni 450 dan ortiq, lekin bizgacha faqat 160 taga yaqini yetib kelgan. Jahonda „Shayx ur-ra'is“, ya'ni „Olimlar boshlig'i“, „Tabiiy podshohi“ nomlari bilan ulug'langan bu olimning „Kitob al-qonun fit-tibb“ („Tib qonunlari“) asari XI asrdan boshlab Yevropada lotif tiliga tarjima qilingan va 30 marta dan ortiq nashr qilingan. U ham Forobiy kabi haqiqiy ideal jamoaga mavjud dunyoda erishish mumkin, jamiyat

MUNDARIJA

Kirish.....	3
A.....	5
B.....	23
D.....	25
E.....	33
F.....	35
H.....	39
I.....	42
J.....	74
K.....	77
L.....	81
M.....	82
N.....	93
O.....	97
P.....	100
Q.....	102
S.....	103
T.....	105
U.....	110
V.....	110
X.....	111
Y.....	114
Sh.....	120
Z.....	121
O'.....	122
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	123